

*Qirg‘izboyev Sherali Yulchiboy o‘g‘li*

*Mudofaa Vazirligi Merganlar tayyorlash markazi o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Biz yashayotgan olam kundan-kunga tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib, rivojlanib bormoqda. Har bir sohada kun talabiga mos holda ish yuritish talab etilmoqda. Shu jumladan o‘sib kelayotgan avlod bilan ishlaydigan o‘qituvchilarga ham ko‘plab talablar va masuliyat yuklanmoqda. O‘qituvchi zamonaviy o‘quvchilar nima bilan ishlayotganini tushinishi hamda ularga mos holda bo‘lishi darkor. Buning uchun har bir pedagog kreativ bo‘lishi darslarni yangicha yondashuv bilan o‘tkazish va o‘quvchilarni fanga, mavzularga bo’lgan qiziqishlarini shakllantira olishlari kerak.

**Kalit so‘zlar:** kreativlik, ijodiy fikrlash, ijodkor bolish, nostandard, intelektual, yaratuvchanlik, yondashuv, metodlar, kreativ fikrlash.

**Annotation:** In today's rapidly changing world, it is crucial for educators to be innovative and flexible in their teaching approach. With students constantly exposed to new technologies and information, teachers must stay up-to-date and be willing to think outside the box in order to engage and inspire their students. By fostering creativity in the classroom, educators can create a dynamic learning environment that encourages critical thinking, problem-solving, and a deeper understanding of complex subjects. Embracing non-traditional teaching methods and incorporating creative thinking into lesson plans can help students develop a passion for learning and prepare them for success in an ever-changing society.

**Key words:** creativity, creative thinking, being creative, non-standard, intellectual, creativity, approach, methods, creative thinking.

**Аннотация:** Мир, в котором мы живем, меняется и развивается день ото дня до неизвестности. В каждой области необходимо работать в соответствии с повседневными потребностями. Кроме того, к педагогам, работающим с подрастающим поколением, предъявляется множество требований и обязанностей. Преподаватель должен понимать, с чем работают современные ученики, и быть с ними в гармонии. Для этого каждый педагог должен быть творческим, проводить занятия с новым подходом и уметь формировать интерес учащихся к науке и темам.

**Ключевые слова:** творчество, творческое мышление, креативность, нестандартность, интеллектуальность, креативность, подход, методы, творческое мышление.

## KIRISH.

Bugungi globallashuv kuchaygan davrda har qaysi jamiyat kreativ shaxslarga extiyoj sezadi. Bu tabiiy hol albatta. Chunki dunyoda har daqiqada sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar shuni taqozo qilmoqda.

Shu munosabat bilan turli soxa olimlarining e’tibori pedagogik jarayon sharoitida talaba shaxsining kreativ salohiyatini ochish va rivojlantirish muammosiga qaratilgan. Demak, zamonaviy ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etishning yangi paradigmatic asoslarini ishlab chiqish zarurati tug‘iladi va bu esa pedagogikaning yangi innovatsion yo‘nalishi ya’ni kreativ pedagogikaga murojat qilishga imkomniyat yaratadi.

Kreativ pedagogika muammolari yaxlit pedagogik nazariya va boshqa ijtimoiy fanlar tizimida: pedagogika tarixi va ta’lim falsafasi, umumiy va kasbiy pedagogika va psixologoya, o‘qitish va tarbiyalash usullari va texnologiyalari, kasbiy etika va boshqalarda ko‘rib chiqiladi.

### **PEDAGOGLARNING KREATIVLIGINI IFODALOVCHI BELGILAR VA TAMOYILLAR**

Talabalarni kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor shaxs bo‘lishi zarur. Bordiyu, uning o‘zi kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasa, u holda qanday qilib, talabalarni kreativ fikrlashga o‘rgata oladi. Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor bo‘lsagina, talabalar ham shunday bo‘la oladi.




O‘qituvchining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur.

Darslarda o‘qituvchi “kreativlik yo‘l xaritasi”ga ko‘ra quyidagi **4 ta** yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadi va ularagini harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilari sanaladi:

- 1) ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyon etish;
- 2) talabalarni o‘quv fanlarini qiziqish bilan o‘zlashtirishga undovchi strategiyalardan foydalana olish;
- 3) innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish;
- 4) kutiladigan natija.

**Pedagogning kreativlik potensiali ko‘p darajali jarayon va u quyidagi tamoyillarga tayanadi:**



## **PEDAGOGNING KREATIVLIK POTENSIALI**

Pedagogning **kreativlik potensiali** uning umumiyligi xususiyati sifatida aks etadi.

U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potensial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo‘ladi.

Kreativ potensial bilish jarayoniga yo‘naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog‘liq. Pedagogning kreativ potensiali an’anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;
- yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipda fikrlamaslik;
- o‘ziga xoslik;
- tashabbuskorlik;
- noaniqlikka toqat qilish;

Pedagog kreativlik potensialiga ega bo‘lishi uchun kasbiy faoliyatida **quyidagilarga** e’tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish;
- ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.



Har bir pedagogning o‘zini o‘zi rivojlantirishi va o‘zini o‘zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog‘liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi.


Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt

ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishslash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarda poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni echish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o‘z oldiga muammoli masalalarni qo‘yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo‘lgan dalillar bilan to‘qnash keladi. Buning natijasida o‘z ustida ishslash, mustaqil o‘qib o‘rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

O‘qituvchilar darslarda talabalarning erkin fikr yuritishlarini ta’minlay olishlari kerak. Xuddi shu holatdagina ularning fikrlari kreativlik kasb etadi.

*“Kreativlik darslarida talabalar birligining “to‘g‘ri” javobni izlash o‘rniga o‘zlarini erkin va hotirjam sezishlari va yuzaga kelgan muammolarga turli yechimlarni izlab topishlari maqsadga muvofiqdir. Qancha ko‘p g‘oya va fikrlarni o‘rtaga tashlasalar, shuncha ko‘p g‘oyalilar kreativ bo‘ladi (Simonton, 1999). O‘quvchilar “Aqliy hujum” metodidan foydalanganlarida noaniqlikka duch kelishlari mumkin. Talabalarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish va keyinchalik ularni mustaqil “sayohatga” qo‘yib yuborish ularda kreativ va, hattoki noaniq bo‘lsada, turli g‘oyalarni o‘ylab topishga bo‘lgan intilishni kuchaytiradi. Chak Djons aytganiday “Qo‘rquv xissining yuzaga kelishi kreativlikka asoslangan har qanday ishda mavjud; havotir*




*kreativlikning xizmatkoridir” (Goleman, Kaufman, & Ray, 1992). Talabalarni yo‘naltirish talabalarda o‘qituvchiga bog‘liq bo‘lib qolmay, ularda avtomatik ravishda harakat qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Yuqori sinf o‘quvchilari yoki yuqori kurslarining malakali talabalari jarayonni kichik alohida qism va bosqichlarga bo‘lib, yosh va tajribasiz talabalarni ruhlantirib, bu esa o‘z o‘rnida kreativlik ko‘nikmasining shakllanishaga o‘z ta’siri o‘tkazadi (Amabile, 1998). O‘qituvchilar talabalarga manbalar bilan ta’minalash, maslahat berish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, ularning progress va muvafaqqiyatini aniqlashda mezonlarni ishlab chiqishda murabbiy sifatida xizmat qiladilar. Shuningdek, yuqori kurs talabalari nafaqat ichki kreativlikni shakllantirish, balki kichik guruhlarda ishlash, kreativlik va sharhlar berishga qiziqtira oladilar ham (misol uchun: ong sayohati, tasavvur chegarasi, keljakdagi muammolarni yechish, yangilik ochmoq va kashf etmoq)”.*

### **Kreativlik potensialiga ega pedagog o‘zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:**

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatinib belgilay bilish;
- masalaning qo‘yilishini tahlil qila olish;
- masalani hal qilish rejasini tuzish;
- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va boshqa)larni qo‘llash;
- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- qabul qilingan qarorning to‘g‘riligini asoslash va qayta tekshirish;
- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish.

### **Pedagogning kreativ potensiali quyidagi tarkibiy asoslarni o‘z ichiga oladi:**




Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. **Natijada pedagog:**

- ijodiy fikrlashga odatlanadi;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko‘nikmalarini puxta o‘zlashtiradi;
- pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg‘or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;
- pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtirok etadi.

### **PEDAGOGLARNING KREATIVLIK IMKONIYATINI ANIQLOVCHI MEZONLAR VA ULARNING DARAJALARI**

Kasbiy faoliyat samaradorligini baholashda pedagogning ijodkorligi – kreativ potensiali darajasini baholash muhim ahamiyatga ega.

**Pedagogning kreativlik potensiali darajasini aniqlovchi mezonlar quyidagilar sanaladi:**



Ushbu mezonlar pedagoglar kreativ potensialini uch darajada aniqlash imkonini beradi:

#### **Pedagog kreativ potensialining muhim darajalari**

No	Darajalar	Daraja xususiyatlari
1	Yuqori	Muntazam ravishda turli tashabbuslarni ilgari suradi, kreativ qobilityatga egaligini izchil namoyib etib boradi, kreativ jihatdan o‘ta faol, izlanuvchan bo‘ladi.
2	O‘rta	Ba’zan u yoki bu tashabbusni ilgari suradi, kreativ qobilityatga egaligi muntazam bo‘lmasa-da, ammo namoyon bo‘ladi, kreativ jihatdan bir qadar faol, izlanuvchan bo‘lishga intiladi.

3	Past	Garchi u yetarlicha asoslanmagan bo'lsa-da, tashabbusni ilgari surshga intiladi, kreativ qobiliyati yetarlicha namoyon bo'lmaydi, izlanuvchan bo'lishga intilmaydi.
---	------	---

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda oquvchilarning ijodkor bo'lishi, kreativ yondashuv, kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakillantirish uchun avvalo o'qituvchining o'zi ijodkor, kreativ fikrlash qobiliyati yuqori darajada bolishi lozim. Chunki xozirgi zamon ta'lim-tarbiya jarayonlari shuni taqazo qilmoqdaki, nostandard vaziyatlarda nostandard qarorlar qabul qilish juda muhim sanaladi. Buning uchun fikrlash qobiliyati keng va muammoli vaziyatni yechimini topishda turli usul va uslublarni qo'llay olish zarur. Shuning uchun pedagoglar mashg'ulotlarni qanday turi bo'lishidan qatiy nazar barcha xolatlarda kreativ yondashishlari va ijodiy fiklashlari lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sayidahmedov N. "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". – T.: 2003.
2. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". – T.: "Fan", 2005.
3. Azizzxo'jaeva.N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat. T.: 2003.
4. Begimkulov U. Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007 y.
5. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: 1999 y.
6. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar. Sh.Q.Otamurodov
7. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)